

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va
sport universiteti rektori



R.M. Matkarimov

2024-yil 20 »

iyul

"KELISHILDI"

O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi raisi



A.T. Yusupov

2024-yil 20 »

08

13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi bo'yicha "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanidan
qo'shimcha malakaviy imtihon

D A S T U R I

CHIRCHIQ – 2024

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldag‘i “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF – 4958-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydag‘i “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

- | | |
|-------------------|--|
| M.Olimov | – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) |
| J.Ishtayev | – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, dotsenti, pedagogika fanlari doktori |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| A.Xalikov | – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, professor |
| M.J.Shodiyeva | – Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent |

Dastur O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan **(2024-yil “__” _____ №__ bayonnomma)**

KIRISH

Mazkur dastur 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanidan qo‘srimcha malakaviy imtihon dasturi talabgorlarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilim va ko‘nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablarini bilishlariga qaratilgan.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani pedagogika tarixi bo‘yicha talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini aniqlaydi. Pedagogika nazariyasi esa ta’lim-tarbiya, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bergenligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyoti ekanligi hisobga olingan. Ta’lim amaliyoti, shuningdek, ta’limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiylar, ta’limotlarni tavsiflaganda shu ta’limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan. Dastur maorif va pedagogika tarixini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada bayon etishga mo‘ljallangan. Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lg‘usi mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or pedagogikasining uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish, keljak maorif va pedagogika taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (23.09.2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son hamda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorlari ushbu dasturni shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dasturning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: talabgorlarni hozirgi zamon pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (23.09.2020) qonunini amaliyatga tatbiq etish jarayonida ta’lim samaradorligini oshirish uchun ularda zarur ko‘nikmalarni hosil qilish; pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish; pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish; Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta’limiy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlari, “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”da hamda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning nutqlaridagi

umuminsoniy va ma’naviy-axloqiy tamoyillarni bilish; hozirgi zamon ta’lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo’llay olishdan iboratdir.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur: ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g‘oyalardan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg‘un holda o‘tkazish; pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o‘rta davrni va istiqbolni ko‘zlab maqsad, vazifalarni belgilash; amaliyotda o‘qitish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo‘llash; amaliyotda o‘qitish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash, ma’lum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish; o‘z oldiga qo‘yan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishini tashkil etish; shaxs faoliyati va xulqini rag‘batlantirib borish; pedagogik vaziyatlar, ta’lim-tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o‘rganish; o‘zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash; o‘z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg‘or tajribalardan foydalananish, qulay pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo‘l qo‘ymaslik, ishga ijobiy munosabatni namoyon etish; guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta’lim, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o‘z-o‘zini boshqarishni tashkil etish.

Talabgor “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganish davomida zamonaviy ta’lim texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

Malakaviy imtihon dasturi 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo‘ljallangan.

ASOSIY QISM **PEDAGOGIKA NAZARIYASI**

O‘qituvchilik kasbining jamiyatda tutgan o‘rni. Pedagogikaning nazariy asoslari. Umumiy pedagogik jarayonning nazariy asoslari.

Didaktika (ta’lim nazariyasi): didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta’lim jarayoni mohiyati. O‘rganish bilish faolligi shakli sifatida. O‘qitish va o‘rganish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining gnoseologik g‘oyalari ta’lim jarayoni asosi sifatida. ta’lim jarayoni, qonuniyatları, tamoyillari, mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etiish shakllari, ta’lim olganlikni tashxis etish.

Tarbiya nazariyasi: tarbiya jarayoni, qonuniyatları, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari: maqsadi va vazifalari, mazmuni va mohiyati, shakl, metod va vositalari.

Ta’lim muassasasini boshqarish: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’lim tizimi va turlari, ta’lim muassasasi menejmenti, ta’limni boshkarish tamoyillari, ta’limning ichki boshqaruvi.

Korreksion pedagogika asoslari: korreksion pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi, korreksion pedagogikaning sohalari. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs rivojlanishi. Shaxs rivojlanishining omillari.

Bola shaxsi tarbiya obekti va subekti sifatida. Shaxs faolligi. Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta’lim tizimlariga umumiyl tavsif. Pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Yagona pedagogik jarayonni yaratish mantig‘i va sharoitlari.

O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlar. Ilmiy-texnik jarayon va ta’lim mazmuni. Ta’lim mazmunini tashkil etish konsepsiysi. O‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tavsifi. Ta’lim metodlari va usullari tushunchalari. Ta’lim turlari. Ta’limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta’limni tashkil qilishning an’anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Ta’limni tashkil qilishning noan’anaviy shakllari: o‘quv dialogi, munozara, didaktik o‘yinlar, trening va boshq. O‘quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta’lim muassasasidan tashqari shakllari.

Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta’lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlar. Tarbiya jarayoni mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasinining shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini shakllantirish. Pedagogik rag‘batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g‘oyani shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari.

Aqliy tarbiY. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish – aqliy tarbiyaning asosi.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasi asosi.

Huquqiy tarbiY. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida. Axloq ijtimoiy ong,

ta'sir etish, va tarbiya shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik.

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Oila, uning tarbiyaviy funksiyasi. Oilaviy tarbiyaning huquqiy asoslari. Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rliqi. Sharq mutafakkirlari oilaviy tarbiya haqida. O'quvchilarning o'quv faoliyatida oilaning g'amxo'rliqi. Oilaviy tarbiya qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va mazmuni. Ta'lim muassasasi Nizomi rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va ularni attestasiyadan o'tkazish, yosh o'qituvchilar bilan ishslash.

PEDAGOGIKA TARIXI

Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiya va uning kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Folklor namunalarida og'zaki ta'lim usullarining ifodalananishi.

Qadimgi davlatlar: Sug'diyona, Baqtriya va Xorazmda ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi. «Avesto»-eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. O'rxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati.

Movaraunnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti. Arab musulmon olami Uyg'onish davri va uning o'ziga xosliklari. Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida ta'lim-tarbiya masalalarining aks etishi. Muso al Xorazmiyning fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Abu Ali ibn Sino va uning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. Abu Nasr Forobiy asarlarida pedagogik masalalarining yoritilishi. Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari va ularning ahamiyati. Yusuf Xos Xojib va uning «Qutadg'u bilig» asari.

XIV-XV-asrlarda Movaraunnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Ijtimoiy hayotning tarbiya, ta'lim va pedagogik fikr taraqqiyotiga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temurning markazlashgan davlatining paydo bo'lishi va uning ilm-ma'rifikatning taraqqiy etishidagi roli. Maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy fanlarni o'qitishning rivojlanishi. Mirzo Ulug'bekning ilm-ma'rifikat sohasidagi xizmatlari. Uning davrida ta'lim-tarbiya tizimi.

Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy merosi. Navoiyning «Hayrat-ul abror» «Mahbub ul-qulub» asarlarida ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Jaloliddin Davoniyning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. «Axloqi Jaloliy» asarining pedagogik fikrlar taraqqiyotida tutgan o'rni. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari.

XVII-XVIII-asrlar, XIXasrnning birinchi yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti. Madrasalarda «Qur'on», «Tafsir», «Odob-as-solihin», «Kimyoi saodat», «Hadis», «Hikmat ul-ayn»larning o'rganilishi. Qo'qon va

boshqa xonliklarda otinoyilar maktablari. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi.

Turkiston o'lkasida islom diniy-tarbiyaviy muassasalarning an'anaviy tizimi. Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Turkistonda jadidchilik harakati, yangi usul maktablarining paydo bulishi. I.Gaspirali faoliyati. Munavvar Qori, Avloniy, Shakuriy, Behbudiy larning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiya tizimi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat faoliyati va ilmiy pedagogik me'rosi.

O'zbekistonda 1917-1924-yillarda maktab va maorif. Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilganidan so'ng xalq ta'limi va pedagogik fikr (1924-1941). Ikkinci jahon urushi va undan keyingi yillarda O'zbekistonda xalq maorifi va pedagogika taraqqiyoti. Siddiq Rajabov va uning O'zbekistonda pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi. XX-asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinishi va ta'lim tizimidagi islohotlar. 1997-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Mustaqillik yillarida pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari.

Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiY. Qadimgi Sharq davlatlarida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Qadimgi Yunoniston (Spartak, Afina) davlatlarida tarbiya va ta'lim tizimi. Qadimgi Yunon faylasuflari ta'limotida tarbiya masalalari. G'arbiy Yevropa mamlakatlarda ta'lim-tarbiY. Y.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida G'arbiy Yevropa, AQSH, Rossiyada pedagogik islohotlar va uning asosiy oqimlari. Jahon mamlakatlarda pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy oqimlari. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti.

Imtihon savollari

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (23.09.2020) va ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida ta'lim-tarbiyaning qonuniy asoslari.
3. Pedagogik fikrning rivojlanishi. (Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur tarbiya haqida)
4. Zamonaviy maktabda o'qitish shakllari. Dars-maktabda asosiy ta'lim shakli sifatida. Zamonaviy darslarga qo'yiladigan talablar.
5. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi demokratik munosabatlarni shakllantirishning maqsadi va asosiy usullari.
6. O'qituvchi faoliyatini ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. Informatsion texnologiyalarni pedagogik jarayonda qo'llashning usullari.
7. Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlari.
8. Ta'limda interaktiv uslublarni qo'llashning maqsadi, mohiyati va vazifalari.

9. Tarbiya-shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni sifatida. Tarbiya jarayonining mazmuni, qonuniyatlari va asosiy tamoyillari.

10. Turkistonda jadidchilik harakatining maktab va maorifga ko‘rsatgan ta’siri. (Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon).

11. Ta’lim jarayonida zamонавиу pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning asososiy mohiyati va ahamiyati. Pedagogik texnologiyalarning afzalligi nimada?

12. Tarbiya uslublarining turlari. O‘quvchilarga qo‘llanadigan Movarounnahrda tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari. Pedagogik fikrning rivojlanishi (Mirzo Ulug‘bek, A.Navoiy, Bobur tarbiya haqida).

13. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi demokratik munosabatlarni shakllantirishning maqsadi va asosiy usullari.

14. Ijtimoiy ong va ijtimoiy ahloqiy shakllantirish usullari. Shaxs, guruh, jamoa.

15. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim turlari. Davlat va nodavlat ta’lim muassasalari.

16. Ta’limda reyting tizimini qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad.

17. Qadimgi Yunon faylasufi Arastu ilmiy merosida ta’lim va tarbiya borasidagi g‘oyalar.

18. Professional ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari.

19. Pedagogika shaxsni tarbiyalash va takomillashtirish to‘g‘risidagi fan sifatida. Uning predmeti, vazifalari, tuzilishi va boshqa fanlar bilan aloqasi.

20. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari: kuzatish, so‘rov (sotsiologik), eksprement ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va boshqalar.

21. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari (XI-asr) ta’lim-tarbiyaga oid birinchi, ma’rifiy asar sifatida.

22. XXI-asrda pedagogika fani (muammolar, yechimlar).

23. Y.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni.

24. Xalq pedagogikasi va uning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni.

25. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’limiy-axlokiy masalalar.

26. “Avesto”da ta’lim-tarbiya masalalari.

27. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari.

28. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar va ularni tashkil etish metodikasi.

29. Davlat ta’lim standartlari va uni hayotga tatbiq etish muammolari.

30. Ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Uni tarbiyalashning asosiy usul va vositalari.

31. Didaktika o‘qitish jarayoni to‘g‘risidagi fan sifatida.

32. Tarbiyalovchi jamoani shakillantirish uslublari: pedagogik talablarni ko‘yish, o‘quvchilar faolligini tarbiyalash, ijtimoiy fikrni shakllantirish.

33. Asosiy pedagogik kategoriya va tushunchalar. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va shakllanishi, shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar.

34. G‘oya va mafkura tushunchalarining mohiyati. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarda milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish.

35. Ta’lim jarayonida AKTdan foydalanishning didaktik asoslari.

36. Ta’lim-tarbiyada innovatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmun va mohiyati.

37. Mustaqillik yillarida oliy ta’lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini kayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha islohotlar.

38. Mustaqillik yillarida yoshlar ta’limi va tarbiyasiga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar va ularning mohiyati.

39. Hozirgi zamon o‘qituvchi kompetensiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

40. O‘rta Osiyo ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari.

41. Hozirgi zamon o‘qituvchi kompetensiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

42. Ta’lim menejmenti va ta’lim menejeriga qo‘yiladigan malakaviy talablar.

43. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni va uning mohiyati.

44. Pedagogika va uning tarkibiy tarmoqlari.

45. Ta’limning innovatsion shakllari va vositalari.

46. Blum taksanomiyasi. Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash.

47. O‘qituvchining pedagogik mahorati va unga qo‘yiladigan hozirgi zamon talablari.

48. Tarbiya jarayonida shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanidan qo‘srimcha malakaviy imtihon bo‘yicha talabgorlar bilimini BAHOLASH MEZONLARI

Maksimall ball – 100 ball

Saralash ball – 56 ball

56 balldan – 70 ballgacha (70 - 55%) – qoniqarli

71 balldan – 85 ballgacha (71 - 85,9%) – yaxshi

86 balldan – 100 ballgacha (86 - 100%) – a’lo

86-100 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

– ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat haqida tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi;

– soha (fan)ni perspektiv rivojlanish tendensiyasi bo‘yicha ilmiy muammo va masalalar to‘g‘risida tahliliy fikr-mulohazalar;

– fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;

– ilmiy-tadqiqot olib borish haqida tasavvurga egaligi va dissertatsiyaning tayyorlik darajasi;

– tadqiqot olib borish jarayonining amaliy ifodasi sifatida ilmiy maqolalar taqdim qilinganligi va ularning saviyasi.

71-85 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

– ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyat haqida tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi;

– dissertatsiyasi ishida qanday muammo hal qilinishini bilishi;

- fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;
- ilmiy-tadqiqot olib borish haqida tasavvurga egaligi va dissertatsiyaning tayyorlik darajasi;

56-70 ball – talabgorning bilimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

- fan (soha) bo‘yicha ilmiy maktablarni bilishi;
- sohaning yetakchi olimlarini bilishi;
- fikrni mantiqiy ifodalash qobiliyati;

Har bir talabgor uchun 3 ta savoldan iborat variantlar tayyorlanadi. Har bir savolga to‘g‘ri javob 100 balli tizimda 33,3 ball ko‘rsatkich miqdorida baholanadi.

O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 108-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son Qarori. <https://old.lex.uz/docs/6600390>
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
6. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1993.
8. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq me`rosi nashriyoti, 1993.
9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. –T.: Fan, 1998.
10. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar.O‘n besh tomlik. 13- tom. -T.: Adabiyot va san’at, 1996.
11. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.–T.: Fan, 2000
12. Hasanboeva O., Xasanboev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G‘afur G‘ulom. 2005
13. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad /Odob durdonalari/. –T.: O‘zbekiston, 1990.
14. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome’ as-saxix. – T.: O‘zbekiston, 1991.
15. Kaykovus. Qobusnama. – T.: Meros, 1992.
16. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 2001.
17. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov. S.Ochil. O‘qituvchi, 1995-2000).

18. Pedagogika (A.K.Minavarovning umumiy tahriri ostida). –T.: O‘qituvchi, 1996.
19. Pedagogika nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik./ M.X.To‘xtaxodjaevaning umumiy taxriri ostida. “Iqtisod-moliya”, 2007.-380 b.
20. Pedagogika tarixidan xrestomatiY. (Tuzuvchi: O.Xasanboeva). – T.: O‘qituvchi, 1990.
21. Podlasiy I.P. Pedagogika. 1 -2 t. – M.: Vlados, 1999.
22. Qur’oni Karim. -T.: Cho‘lpon, 1993.
23. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003.
24. Xasanboev J., To‘raqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 672 bet.
25. Xasanboyev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan”,2006
26. Xasanboyeva O., Xasanboyev J., Xamidov X. Pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma T., “O‘qituvchi” 1997.
27. Xoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. II—qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2005.
28. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u biling (so‘z boshi muallifi B.Tuxliev). – T.: Yulduzcha, 1990.
29. www.ziyouz.com
30. www.pedagogika.uz
31. www.natlib.uz
32. www.ziyouz.com